



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 1-dekabr, № 256 (8598)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTINING BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIGA TASHRIFI BOSHLANDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari
Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 30-noyabr kuni
amaliy tashrif bilan Dubay shahriga keldi.**

Aeroportda oliy martabali mehmonni BAA energetika va infratuzilma vaziri Suxayl al-Mazruiy kutib oldi.

1-dekabr kuni davlatimiz rahbari BMtning Iqlim o'zgarishlari bo'yicha konferensiyasida ishtirok etadi

hamda ushbu global sammit yalpi sessiyasida nutq so'zlaydi.
Tadbir kun tartibidan BMtning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi asosiy qoidalarini amalga oshirish, bugungi ekologik tahdid va

xatarlarga qarshi kurashish, "yashil" taraqqiyot maqsad va vazifalarini ilgari surishda keng hamkorlik masalalari o'rin olgan.

O'ZA.

O'ZBEKISTON SAYYORAMIZNI ASRAB-AVAYLASH, KELAJAK AVLODLARGA TALAFOTLARSIZ YETKAZISH TARAFDORI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 30-noyabr — 2-dekabr kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tadigan BMtning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi ishtirokchilarining 28-konferensiyasi (COP — 28) doirasidagi Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish sohasidagi harakatlar bo'yicha jahon sammitida ishtirok etadi.

Biz va jahon

Ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsad global iqlim o'zgarishi, uning oqibatlariga qarshi kurashish, Parij kelishuvi qabul qilingandan keyin erishilgan yutuqlarni baholash va sarhisob etish masalalarini muhokama qilishdan iborat.

Sammit dasturidan davlat va hukumat rahbarlari uchun yuqori darajadagi uchrashuvlar, oziq-ovqat, energetika, yoshlar va ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, suv, iqlimni moliyalashtirish va "COP — 28"ni amalga oshirishga bag'ishlangan tadbirlar hamda davra suhbatlari o'rin olgan.

Anjumanda 150 dan ortiq mamlakatlardan davlat, hukumat rahbarlari va vazirlar darajasidagi delegatsiyalar, xalqaro tuzilmalar, nodavlat notijorat tashkilotlari,

ekspertlar, ilmiy va jamoat doiralari vakillari ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Takidlash joizki, BMtning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi 1992-yilda qabul qilingan bo'lib, u dunyoning deyarli barcha davlatlarini qamrab olgan. Kioto protokoli va Parij kelishuvi BMtning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi asoslari va rivojlanishi bo'yicha qabul qilingan hujjatlardir.

O'zbekiston 1993-yil 20-iyunda BMtning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasiga qo'shilgan, 1999-yilda Kioto protokolini ratifikatsiya qilgan. 2017-yilda Parij bitimini imzolash orqali O'zbekiston qator majburiyatlarini, jumladan, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga "issiqxona gazlari" emissiyasini 2010-yilgi darajadan 35 foizga kamaytirish bo'yicha asosiy

majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

BMT hadli konvensiyasining ishtirokchisi sifatida O'zbekiston iqlim bo'yicha muntazam hisobotlarni tayyorlaydi va Konvensiya kotibiyatiga taqdim etadi. Shuningdek, milliy ma'ruza, ikki yillik hisobotlar, moslashish rejalari, milliy miqyosda belgilangan badallarni ishlab chiqadi va yangilaydi.

Ayni paytda iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekistonning so'nggi besh yildagi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash borasidagi faoliyatini aks ettiruvchi To'rtinchi milliy ma'ruzasini tayyorlash ishlari yakunlanmoqda.

Bugungi kundadunyo iqlimo'zgarishi, biologik xilmaxillikning yo'qolishi va sayyoramizning ifloslanishi oqibatlariga duch kelayotgan, Markaziy Osiyo mintaqasi esa global isish oqibatlarini tobora ko'proq his qilayotgan bir paytda O'zbekiston atrof-muhit, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqdi.

Xususan, O'zbekistonda ekologik muammolarni hal etish, bioxilmaxillikni saqlash va BMtning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish

Hamkorlik

MUNOSABATLARIMIZNING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha II global forum doirasida Belarus Milliy Majlisi Respublika Kengashi raisi o'rinbosari Valeriy Belskiy bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Belarus munosabatlari bugungi holati hamda istiqbollari, xususan, parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, hududlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatlarimiz biznes doiralari, ayniqsa, ishbilar-

mon xotin-qizlar o'rtasida bugun o'zaro manfaatli loyihalar amalga oshirilayotgani, bunda tadbirkor ayollar biznes forumi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha yangi takliflarni muhokama qilish va ishlab chiqish uchun samarali maydonga aylangani alohida ta'kidlandi.

O'z navbatida, oliy darajada erishilgan iqtisodiyot, savdo va sanoat sohaslaridagi kelishuvlar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish bilan birga ularni huquqiy jihatdan ta'minlashda sa'y-harakatlarni birlashtirish lozimligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida xalqaro parlament tuzilmalari doirasida bundan keyin ham tomonlar tashabbuslarini o'zaro qo'llab-quvvatlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA PARLAMENTLARARO MULOQOT

Poytaxtimizdagi "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha II global forum bo'lib o'tdi.

Global forum

Unda Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong va EXHT Parlament Assambleyasi Prezidenti Pia Kauma videomurojaat bilan ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari a'zolari, MDH ishtirokchisi davlatlarining Parlamentlararo Assambleyasi Raisi Valentina Matviyenko, Turkiy mamlakatlar Parlament assambleyasi Bosh kotibi Mexmet Sureyya Er, xorijiy mamlakatlar parlamentlari rahbarlari, parlamentlararo tashkilotlar,

Yoshlar parlamentlari, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari ekspertlari to'g'ridan-to'g'ri hamda onlayn tarzda qatnashdi.

Forum avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman ishtirokchilariga yo'llagan murojaatini Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva o'qib eshittirdi.



Uchrashuv

O'ZARO ALOQALAR YUQORI BOSQICHGA KO'TARILADI

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha II global forumi doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Rossiya Federal Majlisi Davlat Dumasi raisi o'rinbosarlari Aleksandr Babakov va Anna Kuznetsova bilan uchrashdi.

Uchrashuvda tomonlar ikki davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari va siyosiy irodasi tufayli bugungi kunda O'zbekiston — Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlanib, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorliklar yuqori bosqichga ko'tarilganini e'tirof etishdi.

Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov o'z so'zida keyingi yillarda parlamentlararo muloqotlar jadal sur'at kasb etgani, ikki mamlakat parlamentlarining palata

va qo'mitalari rahbarlari darajasida uchrashuvlar o'tkazish amaliyoti muvaffaqiyatli joriy qilinganini ta'kidladi. Qonunchilik palatasining Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat Dumasi bilan tashkil etilgan parlamentlararo komissiya ikki tomonlama aloqalarni yanada mustahkamlash hamda qonunchilik faoliyatini tashkil qilish sohasida tajriba almashishda muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlandi.

O'z navbatida, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat Dumasi vakillari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

rahbarligida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yoshlar tarbiyasi, gender tenglikni ta'minlash, oila institutini mustahkamlash, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ro'y bergan o'zgarishlarni yuksak baholadi.

Rossiya parlamenti a'zolari ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanib borayotgani ikki mamlakatning do'stona va ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlashga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Samimiy va konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda tomonlar parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnomani (Toshkent, 2022-yil 22-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 22-noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2023-yil 25-noyabrda ma'qullangan

O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma (Toshkent, 2022-yil 22-dekabr) ratifikatsiya qilinsin.

**O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti**

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shohri,
2023-yil 30-noyabr
№ O'RQ—882

Dunyo nigohi

«The New York Times»:

OROL DENGIZI FOJIASI — INSONIYAT UCHUN OGOHLIK QO'NG'IROG'I

Amerikaning nomdor "The New York Times" gazetasida Orol dengizi havzasidagi halokatli oqibatlariga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi.

Uning muallifi Jeykob Dreyerning yozishicha, qurigan Orol dengizi tubi bo'ylab sayr qilish xuddi "do'zax"ga sho'ng'ishdek gap: tevarak-atrof, saksovlul daraxtlarini hisobga olmaganda, hayotdan butunlay uzilib qolgan cho'ldan iborat. Quyosh tig'i ostida qum bo'ronlari esmoqda.

"Men tarqoq joylashgan

ko'llardan birining chetiga yetib bordim. Ushbu ko'l bir paytlar ulkan suv havzasi bo'lgan Orol dengizining qoldiqlaridan biri. Oyoq kimimni yechib, suvga tushdim. Suv tuz bilan shunchalik to'yimganki, natijada u yopishqoq holga kelib qolgan", deb yozadi jurnalist.



2023-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta'lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilgani bejiz emas. Chunki jamiyat hayotida o'qituvchining o'rni va ta'siri oshsa, maktabning obro'si, ilmiy, ta'lim va tarbiya sohasining qadri ko'tariladi. Muallimning obro'-e'tibori esa bu millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi asosida mamlakatimizda

8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

TA'LIM VA MUALLIM QADRI

**yangi Uyg'onish davrining uzviy halqasi va
tayanch ustuni**

Mamlakat taraqqiyoti haqida so'z ketganida, avvalo, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib voyaga yetkazish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu olibanob, sharaffi, ayni paytda mashaqqatli ish esa o'qituvchilar zimmasida.

Bugun yurtimizda millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir inson o'z qobiliyati va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yobga chiqara oladigan ijtimoiy davlat barpo etilmoqda. Shu maqsadda barcha kuch va imkoniyatlar yoshlarning intellektual va jismoniy kamoloti, ularning sifatli ta'lim olib, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun safarbar qilinmoqda.

ko'plab yangi bog'chalar, maktab va oliygohlar barpo etilmoqda. Ta'lim-tarbiya va ilm-fan muassasalarining moddiy-texnika bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi yaratilmoqda. Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish davlatimizning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan

42 foizga, oliygohlar sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishilgani sohadagi ishlar ko'lami va ularning natijasini ko'rsatib turibdi.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida bu yil xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisi maktablarda ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3 barobar oshirish, 10 va 11-sinfarga qator fanlarni o'quvchilarning tanlovi asosida chuquurlashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.



DAVLAT BOSHQARUVIDA PARLAMENT VAKOLATLARI

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini berayotgani barchaga ma'lum. Xususan, qisqa muddatda O'zbekiston dunyo uchun ochiq davlatga aylandi, natijada nafaqat mintaqamizdagi, balki boshqa hududlardagi mamlakatlar bilan aloqalarimiz sezilarli darajada kuchaydi. Qolaversa, hozirgi globallashuv jarayonlari jamiyat hayotiga qator yangiliklarni olib kirdi.

Ana shunday vaziyatda mavjud qonunchilik, avvalo, Bosh qomusimizni zamon talablari asosida takomillashtirish vazifasi kun tartibiga chiqdi. Yodingizda bo'lsa, bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 6-noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o'tgandi. Davlat rahbari o'sha yilgi Konstitutsiya bayrami munosabati bilan xalqqa yo'llagan tabrigida: "Konstitutsiyani

yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylash" zarurligini alohida ta'kidlagan edi. Shu tariqa 2022-yil may oyida Konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlab yuborildi.

O'zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha "to'lishgan" Bosh qomusi 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi.

Xo'sh, ushbu o'zgarishlar nimalardan iborat?



DAVLAT BOSHQARUVIDA PARLAMENT VAKOLATLARI



Avvalo, eng muhim o'nta yo'nalishda o'zgarishlar qilinganligini aytib o'tish zarur. Ularning hammasi haqida, albatta, birgina maqolada batafsil to'xtalish imkonsiz. Shu bois ulardan bittasi, yanada aniq aytadigan bo'lsak, parlament bilan bog'liq yangilanishlar xususida to'xtalmoqchimiz.

Yangi konstitutsiyaviy normaga ko'ra, Bosh vazir nomzodini endilikda Prezident taqdim etadi. Prezident Bosh vazir nomzodini taqdim qilishdan oldin parlamentdagi barcha partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazadi. Qonunchilik palatasi Prezident taqdim etgan nomzodni ko'rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko'pi ma'qullasa, Bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad qilsa, Prezident Bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishi mumkin bo'ladi. Ilgarilari Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasi eng ko'p o'rinni egallagan partiya taklif qiladi, Prezident ma'qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanadi.

Bosh qomusimizdagi yana bir yangilik parlament vakillari soni bilan bog'liq. Unga ko'ra, senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024-yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari soni esa o'zgarishsiz qoldiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda raqobatni rivojlantirish va

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish organlari rahbarlarini Prezident taqdimiga binoan saylash Senat vakolatiga kiritildi. Senat, shuningdek, yuqori sud mansabdorlarini saylaydi, Bosh prokuror hamda Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqadi va ma'qullaydi. Ayni chog'da DXR raisligiga nomzod bo'yicha Prezident bilan maslahatlashuv o'tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi. Qolaversa, Senat mahalliy Kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ham ega bo'ladi. Bu esa senatorlardan katta mas'uliyat talab etishi o'z-o'zidan tushunarli.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonunlar yuzasidan berilayotgan qo'shimcha vakolat ham yuqori palata vakillarini yangi sur'at bilan ishlashga undaydi. Gap shundaki, endilikda Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi uni Prezidentga yuborishi mumkin bo'ladi. Qonunlarning Prezident tomonidan imzolinishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat esa 30 kundan 60 kunga uzaytirilmoqda. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, Prezidentning uni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz qoldirilmoqda, ya'ni 14 kun.

Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi. Buning uchun palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ovozi talab etiladi. Qolaversa, jiddiy voqealar ro'y berganida, ikki palata qo'shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruv o'tkazishi mumkinligi ham belgilab qo'yildi.

Ko'rinib turibdiki, Konstitutsiyamizga kiritilgan parlamentga doir o'zgartishlar Oliy Majlis palatalari yanada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Abdug'ani SANGINOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS

Ma'lumki, dunyo iqtisodiyotida mavhumliklar, bozor uchun kurash tobora avj olayotgan, iqtisodiy zanjirlar zaiflashib borayotgan ayni damda iqtisodiyotimizning huquqiy asoslarini jahon standartlariga moslashtirish, shaxs erkinligi, mulk daxlsizligini ta'minlash, mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhiti va investitsiyaviy jozibadorlikni namoyon qilishda Bosh qomusimizda belgilangan normalarning o'rni, ahamiyati beqiyos.

Shunga mos konstitutsiyaviy-huquqiy makon yaratish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquq va manfaatlarini so'zsiz ta'minlashga qaratilgan islohotlarni qat'iy davom ettirish uchun mustahkam huquqiy poydevor zaruratidan kelib chiqib, yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi xalq tomonidan qabul qilingani e'tiborga molik.

Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya yig'ilishida Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning uy-joyga bo'lgan huquqlarini himoya qilish, uning daxlsizligini kafolatlash, aholining barcha qatlami, ayniqsa, muhtoj toifalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyatlarini mustahkamlash, xalqimiz orasida "snos" degan nom bilan mashhur bo'lgan muammoga butunlay barham berish, imorat buzilishga tushadigan bo'lsa, buning uchun buzishdan oldin uning qiymatiga mos ravishda kompensatsiya to'lanishi shartligi bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatni belgilab qo'yish lozimligini ta'kidlagan edi.

Shu bois mamlakatimiz kelajagini, iqtisodiy, siyosiy jihatdan qurilishining asosiy tomonlarini tartibga solish bo'yicha tamoman yangicha yondashuvni belgilab bergan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mujassam prinsiplar, qoidalar, avvalo, inson qadri, shahni himoya qilishga, xususiy mulk huquqlarini, daxlsizligini ta'minlashga, jamiyatni boshqarishda fuqarolar va jamoat birlashmalarining o'rini, xususan, Davlat budgeti mablag'larini yig'ish va tasarruf etish jarayonida ularning ishtirokini kafolatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 47-moddasida mutlaqo yangi norma kiritilib, unga ko'ra, har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega ekanligi, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin



emasligi, uy-joyidan mahrum qilingan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi kafolatlanmoqda.

Shuningdek, 68-moddada "Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin"ligi konstitutsiyaviy norma qilib belgilanishi mamlakatda investitsiya jozibadorligini oshirishi, tadbirkorlar xususiy bo'lgan yer mulkidan zarur hollarda garov sifatida va boshqa maqsadlarda o'z faoliyatida erkin foydalanishlariga keng imkoniyat yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, jamiyat hayotining barcha jabhasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan keng ko'lami islohotlarni amalga oshirishni mulksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, mulk bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarsiz ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari o'z mazmuniga ega emas. Ushbu munosabatlarda davlat shaxs huquqi ustunligini hisobga olib, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhitni ta'minlagan holda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi hamda huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyamizda mustahkamlangan bosh maqsad, prinsip va qoidalar

mamlakat moliya va kredit sohasi qoidalarini ham xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan. Mamlakat pul-kredit tizimi takomillashtirilishi, avvalo, kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish orqali mamlakatni yanada taraqqiy toptirishga xizmat qilishi lozim.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 148-moddasida mamlakat budgeti siyosatiga oid muhim yangi normalar, xususan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining shakllantirish hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari, fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budget jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanishi haqiqiy fuqarolik jamiyati sari yana bir muhim salmoqli qadam, desak, to'g'ri bo'ladi.

Konstitutsiyamizda yaratilgan mustahkam zamin negizida mamlakatimizda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan standartlari va normalarga to'la mos bo'lgan davlat boshqaruvi va huquqiy tizim tashkil topmoqda, iqtisodiyot rivojlanishining samarali mexanizmi yaratilmoqda.

Bosh qomusimiz islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishida, ko'zlangan ezgu maqsadga erishishda mustahkam huquqiy zamin bo'lib, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim qoidalarini o'zida mujassamlantirib, jamiyatimiz hayotining asosiy huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Asosiy maqsadimiz — rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiy tizimning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasidagi sa'y-harakatlarimiz yanada samarali bo'lishiga ishonchimiz komil.

Abdug'ani UMIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

E'tirof

Munosabatlarni yanada kengaytirishga kelishib olindi

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi O. Iminov Aholishunoslik va taraqqiyot bo'yicha Osiyo parlamentlari a'zolari forumi Bosh kotibi J. Siratranont bilan uchrashdi.

Muloqotda mehmon O'zbekiston rahbariyatiga demografik o'zgarishlar sharoitida barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan xalqaro konferensiyani o'tkazishni har tomonlama qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik bildirdi.

Shuningdek, u kelgusida Aholishunoslik va taraqqiyot bo'yicha Osiyo parlamentlari a'zolari forumi O'zbekiston parlamenti a'zolari bilan hamkorlikka tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Forumga a'zo davlatlar parlamentlari bilan onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni saqlash, jamiyatda xotin-qizlar o'rini oshirish va gender tenglikni ta'minlash sohalarida hamkorlik qilish, tajriba almashish mumkinligi alohida ta'kidlandi.

Aholishunoslik va taraqqiyot bo'yicha Osiyo parlamentlari a'zolari forumi 1982-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda Osiyoning 30 dan ortiq davlatlari parlamentlari bilan hamkorlik qilib kelmokda.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Respublikasi parlamenti hamda Aholishunoslik va taraqqiyot bo'yicha Osiyo parlamentlari a'zolari forumi o'tasidagi munosabatlarni yanada kengaytirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

Qulaylik

Shaharda yangi avtobuslar harakatlanadi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligi arafasida Buxoro shahrida yangi zamonaviy avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yilmoqda. Gap shundaki, viloyatga "Progress mega trans" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 20 ta avtobus olib kelindi.



Har birining narxi 64 ming AQSH dollari bo'lgan bu avtoulovlar Xi-toyning "Zhang Tong" kompaniyasi mahsuloti bo'lib, atrof-muhitga juda kam miqdorda zararli gaz tashlamasi chiqaradi. Ularda yo'lovchilarning bexavotir manzila yetib olishlari uchun zarur qulaylik yaratilgan.

Avtobus saloni 30 yo'lovchiga mo'ljallangan, — deydi korxona haydovchilaridan biri Jasur Esanov. — U kuzatuv kameralari bilan ta'minlangan. Oynalari quyosh nuridan asraydigan plyonkalar bilan qoplangan. Yana bir jihati, isitish va sovitish tizimiga ega. Bu yozi o'ta issiq keladigan yurtimiz iqlim sharoiti uchun ayni muddao.

Viloyatning bir guruh nuroniyolari, mahalla faollari mazkur zamonaviy avtobuslarda shahar bo'ylab sayru sayohat qildi.

Yangi avtobuslar davlatimiz rahbarining "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida xarid qilindi. Ular bayram arafasida, aniqrog'i, 5-dekabrda Buxoro shahri ko'chalari bo'ylab muntazam harakatlanib boshlaydi.

Kelgusi yilning iyuliga qadar viloyatga xuddi shunday yana 80 ta avtobus olib kelish rejalashtirilgan.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devoni mas'ul xodim Nodira Azamatovaga padari buzrukvori

MAHKAM otaning vafoti munosabati bilan chuqur hammadlik izhor etadi.

TA'LIM VA MUALLIM QADRI

yangi Uyg'onish davrining uzviy halqasi va tayanch ustuni

"O'zbekiston — 2030" strategiyasiga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish belgilangan. Dastur doirasida 2023/2024 o'quv yilidan boshlab har yili 500 ming yangi quvvatni tashkil etib borish, o'quv o'rnlari sonini 7,5 milliongacha yetkazish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash, 2,5 million o'quvchi o'rniga ega maktablar qurishga 8 milliard dollar ajratish rejalashtirilmoqda.

Ta'lim sohasi xodimlarining o'rtaicha ish haqi 2 barobar ko'paytiriladi. Ming nafar tarbiyachi va o'qituvchi xorijiy mamlakatlarga malakani kuchaytirish hamda stajirovkaga yuboriladi. O'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham takomillashtiriladi. Maqsad — kadrlar salohiyatini yuksaltirish orqali farzandlarimizga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni o'rgatish, ularni milliy g'ururi baland, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlarini yanada jonlantirishdir.

Ta'kidlash kerakki, 2023-yil — Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yilida mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Natijada o'quv dargohlarida muhit butunlay ijobiy tomonga o'zgardi.

Tan olish lozim, yaqin o'tmishda o'qituvchilarni majburiy mehnatga jalb qilish, ularni o'z xizmat vazifasiga kirmaydigan ishlarga majburlash kabi noxush holatlar bor edi. Davlatimiz rahbarining yuksak siyosiy irodasi va tashabbusi bilan keyingi yillarda bu kabi inson huquqlarini kamsituvchi ishlarga barham berildi. O'qituvchining maqomi va obro'sini ko'tarishga davlat siyosati darajasida qaralmog'da, ularning o'z kasbiy faoliyati bilan to'liq shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 52-moddasida davlat o'qituvchilarning shahni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishiga g'amxo'rlik ko'rsatishi kafolatlantirildi. Bu esa sharaflar kasb sohiblarining jamiyatdagi nufuzini oshirish, uning kasbiy faoliyati davlat tomonidan himoyalashishining huquqiy asosini yaratib berdi.

Joriy yilning 27-martida imzolangan, pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni ko'zda tutuvchi

O'zbekiston Respublikasining "Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi Qonuni ham bu boradagi sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi, desak, yangilishmaymiz.

Qonunda aks etgan huquqiy normalarning hayotiyiligi shundaki, unda pedagog xodimlarning mehnat huquqlarini buzganlik uchun ko'zda tutilgan jazolar aniq va adolatlari belgilangan. E'tibor beraylik, umumiy holatda biror shaxsni majburiy mehnatga yo'naltirish bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha jarimaga sabab bo'lsa, pedagoglarni xuddi shu yo'sinda jalb qilish bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha jarima bilan jazolanishi mazkur qonun asosida belgilanmoqda.

Yana bir jihat: endilikda pedagog xodimni mehnatga biron-bir shaklda

shaxslarga 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi belgilanishi mumkin.

Ayni vaqtda yana bir hujjat — "Pedagog maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasida ham qator muhim jihatlari ko'zda tutilgan. Jumladan, unda pedagogdagi kasbiy majburiyatlariga kirmaydigan hisobotlar va boshqa ma'lumotlar, jumladan, aholining soliqlar, kommunal to'lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi bo'yicha ma'lumotlarni, bitiruvchilarning bandligi ta'minlanganligi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish va taqdim etishni talab qilish taqbiqlanadi.

Biz bugun bir millat, bir davlat bo'lib o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishishda aynan ta'lim-tarbiya strategik ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida jami 640 ming nafardan ziyod o'z ishini jonkuyari bo'lmish pedagoglar faoliyat olib bormoqda. Qonun, birinchi navbatda, ana shu millat fidoyilarining haq-huquqlarini, jamiyatdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishga, qolaversa, ular orqali millionlab farzandlarimizni qamrab olgan



Sirejiddin VOHIDOV olgan surat.

ma'muriy tarzda majburlash, agar xuddi shunday qilmish ma'muriy jazo ko'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan 200 baravarigacha jarima yoki 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlariga jalb etish jazosi belgilandi.

Bundan ko'rinadiki, pedagoglarni majburiy mehnatga yo'naltirish yoki majburlash, nafaqat ma'muriy, balki jinoyi javobgarlikka ham sabab bo'ladi. Aniqliq aytganda, endilikda ushbu holatga takroran yo'l qo'ygan mansabdor

ta'lim dargohlarida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga, ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qonunda pedagogik etika qoidalarini, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning attestatsiyadan o'tishi va malaka toifalari olishlari belgilanmoqda. Pedagogik etika qoidalarini ta'lim tashkilotlari uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Muhim jihatlardan yana biri — pedagogning mehnatiga haq to'lash bo'yicha qoidalar mustahkamlanmoqda.



NON ISROFI — TO'QLIKKA SHO'XLIK



Urush yillari, chamasi 4-5 yoshlarda edim. O'shanda goh qo'shnimiz Zamira buvi, goh Xumayra opoqi kirsovun ko'tarib biznikiga chiqar, nonga almashtirishni so'rashardi. Gohida esa otam rahmatli onam bilan suhbatlashganida zog'ora nonni ko'proq qilgin, deb buyurardi. O'sha paytda ko'pincha zavodda ishlaydiganlarga uch bo'lakdan non tarqatilardi.

Mushohada

Odamlar turli narsalar evaziga non olishardi. O'tgan asrning elliginch yillariga kelib "zaborniy" degan non qog'ozi paydo bo'ldi. U bilan non olish uchun tong saharlab navbatda turish kerak edi. Uch opa-singil navbatma-navbat non olishga borardik. "Zaborniy"ga olingan bir buxanka nonni quchoqlab, odamlarning sevinishlari hali-hamon ko'z oldimda. Uzunndan-uzoq navbatda turishlar, janjal-to'polonlarni gapirmasa ham bo'ladi.

Yana bir voqea hech yodimdan chiqmaydi. Bir safar nonga borayotganimda qog'ozni yo'qotib qo'ydim. Nima qilishni bilmay qoldim. Uyga qaytishga yuragim betlamay, yig'lab ko'chada yuraverdim. Bir muddatdan so'ng opalarim qidirib kelishdi. Uyga bormayman deb oyoq tirab oldim, chunki qo'rqib qolgandim. Axir yo'qotganim oddiy bir qog'oz emas, hayot-mamotimiz edi. Menga uch kun ko'chaga chiqmaslik jazosi tayinlandi. Baxtinga ikkinchi

kuni "zaborniy"imizni narigi ko'chada yashaydigan Zoyit degan bola topib keldi, opam evaziga ancha konfet hadya qilib, uni orqasiga jo'natdi. Shu-shu biz nonli bo'ldik, hayot esa davom etaverdi.

Nimasini aytay, elliginci yillarda aholining turmush tarzi og'ir edi. Istiqloq keltirgan saodat bilan, shukrki, bugun oziq-ovqat, ayniqsa, non masalasida hech bir kamchilgimiz, muammomiz yo'q.

Bir kun ko'chadan yurib borayotganimda to'satdan dimog'imga buxankaning yoqimli isi urildi. Dilim yayrab, kayfiyatim ko'tarildi. Nonning bizga yetib kelguncha bo'ladigan jarayonni ko'z oldimda gavdalandirdim: dastlab dehqon urug'ini tayyorlaydi, keyin ishlov berilgan dalaga sepadi, unib chiqqach, parvarish qiladi, vaqtda sug'oradi, o'g'it soladi. Yetilgan hosilni kombaynlarda

o'rib, don ajratiladi. Sara don tegirmonga keltiriladi. Tayyor mahsulot navlarga ajratilib, qoplanga joylanadi. So'ng tayyor undan novvoyxonalarda xamir tayyorlanadi. Yetilgan xamir maxsus qoliplarga joylanib, pechlarga qo'yiladi. Olov, issiqlik taftidan qizarib pishgan buxanka, yopilgan nonlar dasturxonimizga ko'r, vujudimizga quvvat bag'ishlaydi.

Afsuski, to'qlikka sho'xlik holatlari keyingi paytlarda juda avj oldi. Tez-tez chiqindixonalar yoniga qo'yilgan paket-paket nonlarga ko'zimiz tushadi. Axir o'sha nonni qo'qimga qo'shmay, qotirib, quritib olinsa, aynimasdan turaveradi-ku. Yoshi ulug'lar navqiron avlodga nonning qadrlini, uvolini tushuntirib qo'yishsa, soz ish bo'lardi.

Ayni kunlarda dunyoning qayeridadir onalar, bolalar, odamlar bir burda nonga zor. Ming shukrki, yurtimiz tinch, umrimiz saodatga yor. Dasturxonda nonimiz bor ekan, rizqimiz but, hayotimiz farovondir.

Muqaddas ABDUSAMATOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, mehnat faxriysi.

PEKJAMA

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakulteti
Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 6 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Amaliy matematika va kompyuter tahlili kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 9 ta;
stajer-o'qituvchi — 5 ta.

Axborot xavfsizligi kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Hisoblash matematikasi va axborot tizimlari kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 5 ta.

Sun'iy intellekt kafedrası:

professor — 1 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Biologiya fakulteti**Biofizika kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Biokimyo kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 2 ta.

Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 4 ta.

Genetika kafedrası:

dotsent — 5 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Mikrobiologiya va biotexnologiya kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Odam va hayvonlar fiziologiyasi kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 7 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 3 ta.

Tuproqshunoslik kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 6 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
o'qituvchi — 2 ta.

Zoologiya kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Ekologiya fakulteti**Ekologik monitoring kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 6 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
o'qituvchi — 5 ta.

Ekologiya kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 3 ta;

katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Fizika fakulteti**Astronomiya va astrofizika kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Fotonika kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 5 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Nazariy fizika kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta.

Umumiy fizika kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 9 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Yadro fizikasi kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Yarimo'tkazgichlar va polimerlar fizikasi kafedrası:

dotsent — 3 ta;
o'qituvchi — 2 ta.

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti**Geodeziya va geoinformatika kafedrası:**

dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 6 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası:

dotsent — 5 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 5 ta;
stajer-o'qituvchi — 4 ta.

Kartografiya kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Tabiiy geografiya kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti**Geodinamika va tektonika kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 5 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Geofizikaviy tadqiqot usullari kafedrası:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajer-o'qituvchi — 3 ta.

Geokimyo va mineralogiya kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Geologiya kafedrası:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 6 ta;
stajer-o'qituvchi — 6 ta.

Gidrogeologiya kafedrası:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Gidrometeorologiya fakulteti**Gidrometeorologiya va atrof-muhit monitoringi kafedrası:**

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Meteorologiya va iqlimshunoslik kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 1 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Quruqlik gidrologiyasi kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Ijtimoiy fanlar fakulteti**Etika va estetika kafedrası:**

dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrası:

dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Falsafa va mantiq kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 7 ta;
stajer-o'qituvchi — 3 ta.

Huquqiy fanlar kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 6 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 4 ta.

Ijtimoiy ish kafedrası:

dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Ijtimoiy psixologiya kafedrası:

dotsent — 5 ta;
katta o'qituvchi — 7 ta;
o'qituvchi — 5 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 7 ta.

Siyosatshunoslik kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Sotsiologiya kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Umumiy psixologiya kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 6 ta;
katta o'qituvchi — 7 ta;
o'qituvchi — 10 ta;
stajer-o'qituvchi — 12 ta.

Iqtisodiyot fakulteti**Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish kafedrası:**

professor — 1 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 3 ta.

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası:

professor — 5 ta;

dotsent — 5 ta;
katta o'qituvchi — 10 ta;
o'qituvchi — 4 ta.

Makroiqtisodiyot kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 8 ta;
o'qituvchi — 3 ta.

Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 7 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 4 ta.

Moliya va kredit kafedrası:

professor — 1 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Jurnalistika fakulteti**Audiovizual va internet jurnalistika kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Jamoatchilik bilan aloqalar va reklama kafedrası:

dotsent — 4 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Kimyo fakulteti**Analitik kimyo kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Fizikaviy kimyo kafedrası:

dotsent — 7 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta.

Noorganik kimyo kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 5 ta.

Organik kimyo kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Organik sintez va amaliy kimyo kafedrası:

professor — 1 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
stajer-o'qituvchi — 2 ta.

Polimerlar kimyosi kafedrası:

professor — 4 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Tabiiy birikmalar kimyosi kafedrası:

dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Umumiy va neft-gaz kimyosi kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 6 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Matematika fakulteti**Algebra va funksional analiz kafedrası:**

professor — 3 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
o'qituvchi — 4 ta.

Differensial tenglamalar va matematik fizika kafedrası:

professor — 2 ta;
dotsent — 8 ta;
o'qituvchi — 4 ta.

Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 4 ta.

Geometriya va topologiya kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 3 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Matematik analiz kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 4 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

Mexanika va matematik modellashtirish kafedrası:

professor — 3 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 3 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 1 ta.

O'zbek filologiyasi fakulteti**Fakultetlararo rus tili kafedrası:**

dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 12 ta;
o'qituvchi — 7 ta;
stajer-o'qituvchi — 3 ta.

Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajer-o'qituvchi — 10 ta.

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 9 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 7 ta.

O'zbek tilshunosligi kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajer-o'qituvchi — 4 ta.

Rus adabiyotshunosligi kafedrası:

dotsent — 3 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajer-o'qituvchi — 5 ta.

Rus tilshunosligi kafedrası:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 4 ta;
o'qituvchi — 6 ta;
stajer-o'qituvchi — 4 ta.

Taekvondo va sport faoliyati fakulteti**Sport menejmenti kafedrası:**

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
o'qituvchi — 2 ta;
stajer-o'qituvchi — 3 ta.

Taekvondo va sport faoliyati kafedrası:

dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 6 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajer-o'qituvchi — 10 ta.

Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- Universitet rektori nomiga ariza;
- Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma);
- Oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
- Ilmii unvoni darajasi to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
- Ilmii ishlari ro'yxati (so'ngi 3 yil);
- Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
- Xorijiy til bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi (xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchilari uchun).

Hujjatlar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMUning xodimlar bo'limi. Telefon: 71-246-03-92.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi